

# **BUXORO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR**

## **2024- YIL YANVAR-IYUN**



## Buxoro viloyatida 2024- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

### Raqamlar:



**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar -**

**24 423,5 mlrd. so‘m**


**O‘sish sur’ati -**

**145,4**

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **24 423,5** mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilga nisbatan **145,4** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo‘yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **20 151,6** mlrd. so‘m yoki **82,5 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **3 681,4** mlrd. so‘m, yoki **15,1 %** i korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri keladi.

### Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan – **1 591,3** mlrd. so‘m, jami investitsiyalardagi ulushi **6,5 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **22 832,2** mlrd. so‘m, jami investitsiyalardagi ulushi **93,5 %** ni tashkil qildi.



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'mi-noti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Jami viloyat	10 583,6	1,4	7,4	7,7	1,0	82,5	-	-
Buxoro sh.	1 158,5	3,8	27,6	6,9	1,7	59,8	0,2	-
Kogon sh.	86,5	3,1	17,6	16,9	0,2	62,2	-	-
Olot	344,3	4,1	2,4	21,5	-	-72,0	-	-
Buxoro	654,1	2,1	4,2	10,7	3,6	79,4	-	-
Vobkent	251,2	0,8	12,6	23,1	1,2	62,3	-	-
G'ijduvon	1514,7	0,6	3,1	11,3	1,0	83,9	0,1	-
Kogon	247,2	5,0	9,4	20,8	3,1	61,7	-	-
Qorako'l	2 701,5	0,2	3,8	1,8	0,1	94,1	-	-
Qorovulbozor	1 695,8	0,1	5,9	0,8	0,1	93,1	-	-
Peshko'	1 178,8	0,1	0,8	6,9	-	92,2	-	-
Romitan	441,1	9,1	15,0	22,5	4,6	48,8	-	-
Jondor	189,4	0,8	13,6	42,1	5,3	38,2	-	-
Shofirkon	120,5	0,2	7,0	31,8	7,5	53,5	-	-

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish  
manbalari bo'yicha tarkibi**

	Mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>24 423,5</b>	<b>145,4</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan:</b>	<b>1 591,3</b>	<b>106,5</b>	<b>6,5</b>
Respublika byudjeti	330,6	41,1	1,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	7,8	13,0	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan xorijiy kreditlari	1 252,9	198,6	5,1
<b>Markazlashmagan:</b>	<b>22 832,2</b>	<b>149,2</b>	<b>93,5</b>
Korxona mablag'i	1 795,4	86,2	7,4
Aholi mablag'i	1 886,0	113,0	7,7
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	18 898,7	167,3	77,4
Tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	252,1	100,5	1,0


## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumi hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da

### Markazlashgan




### Markazlashmagan

- To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Korxonalarining o'z mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **7 811,4** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **32,0** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **13 859,2** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **56,7** % i) va boshqa xarajatlarga **2 752,9** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **11,3** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning jamiga nisbatan ulushi, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, ishlab chiqaradigan sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **8 577,7** mlrd. so'm o'zlashtirilgan, yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **35,1** % ni tashkil etmoqda.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari elektr energiyasi va gaz ta'minoti **30,2** % (yoki **7 372,8** mlrd. so'm), tog'-kon sanoatiga **9,8** % (yoki **2 398,2** mlrd. so'm), tashish va saqlash faoliyati **6,8** (yoki **1 667,0** mlrd. so'm), uy-joy qurilishiga **5,7** % (yoki **1 398,9** mlrd. so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **3,3** % (yoki **794,5** mlrd. so'm), qurilishga **2,7** % (yoki **654,2** mlrd. so'm), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlashga **1,1** % (yoki **279,0** mlrd. so'm), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga

**1,1 %** (yoki **271,5** mlrd. so‘m), suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilishga **0,8 %** (yoki **201,3** mlrd. so‘m), ta’limga **0,6 %** (yoki **148,8** mlrd. so‘m), boshqa faoliyat turlariga **2,8 %** (yoki **659,6** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keladi.


Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo‘yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog‘liq.

### Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2024- yil yanvar-iyun oylarida **20 151,6** mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **82,5 %** i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati **169,0** foizni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **10 885,0** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **54,0 %** ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **9 266,6** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **46,0 %** ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi, gaz, bug' va kondisiyalangan havo
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Boshqa faoliyat turlari

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi ishlab chiqarish sanoatiga **8 425,4** mlrd. so'm (yoki **41,8** %), elektr energiyasi, gaz, bug' va kondisiyalangan havo tarmog'iga **7 193,1** (yoki **35,7** %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash tarmog'iga **2 071,9** mlrd. so'm (yoki **10,3** %), tashish va saqlashga **1 177,7** mlrd. so'm (yoki **5,8** %), qurilishga **413,3** mlrd. so'm (yoki **2,1** %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilishga **189,0** mlrd. so'm (yoki **0,9** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **177,0** mlrd. so'm (yoki **0,9** %) va boshqa faoliyat turlariga **504,2** mlrd. so'm (yoki **2,5** %) to'g'ri keladi.

**Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so‘mda)**

		Shu jumladan:		
Jami investitsiya va kreditlar		To‘g‘ridan- to‘g‘ri investitsi- yalar	O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan xorijiy kreditlar	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
Jami	20 151,6	9 951,4	1 252,9	8 947,3
Buxoro sh	1 665,3	443,4	873,1	348,8
Kogon sh	79,6	4,2	38,3	37,1
Olot	580,0	302,6	58,7	218,7
Buxoro	1 274,9	602,6	-	672,3
Vobkent	257,6	-	-	257,6
G‘ijduvon	2 262,5	2 173,3	-	89,2
Kogon	439,6	123,9	219,7	96,0
Qorako‘l	7 914,9	1 558,8	-	6 356,1
Qorovulbozor	2 852,0	2 362,6	-	489,4
Peshko‘	2 099,5	2 034,4	63,1	2,0
Romitan	408,1	217,3	-	190,8
Jondor	127,1	6,3	-	120,8
Shofirkon	190,5	122,0	-	68,5

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Qorako'l tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **8 413,9** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **5,8 m.** ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Qorovulbozor tumani egalladi. O'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **3 063,0** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **163,7** foizni tashkil qildi. Buxoro shahri **2 786,0** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan **121,1** foizni tashkil qildi.

## Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Jami</b>	<b>11 908,7</b>	<b>143,0</b>
Buxoro sh	9 412,1	118,7
Kogon sh	1 973,9	91,4
Olot	7 696,4	160,5
Buxoro	8 964,3	129,7
Vobkent	2 769,5	99,3
G'ijduvon	8 326,3	100,5
Kogon	8 384,6	69,0
Qorako'l	48 833,0	5,7 m.
Qorovulbozor	153 147,3	160,5
Peshko'	17 312,3	97,8
Romitan	5 510,5	33,7
Jondor	1 786,1	110,0
Shofirkon	1 906,0	155,8

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori ko'rsatkichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **153 147,3** ming so'mni, o'sish sur'ati **160,5** foizni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Qorako'l tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **48 833,0** ming so'mni, o'sish sur'ati **5,7 m.** ni tashkil qildi. Peshko' tumani uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **17 312,3** ming so'mni, o'sish sur'ati **97,8** foizni tashkil qildi.

## Obyektlarni ishga tushirish

2024- yilning yanvar – iyun oylarida umumiy maydoni **941,4** ming kv.m. bo‘lgan **3 248** xonadonli **3 072** ta turar-joy ishga tushirildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **97,5** foizni tashkil etdi. Shundan umumiy maydoni **744,8** ming kv.m bo‘lgan **2 470** ta xonadonli **2 470** ta turar joylar qishloq joylariga to‘g‘ri keladi. (O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati **100,9 %**) Turar-joylarni qurilishiga **1 277,4** mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi**  
*Aloqa telefoni: (65) 223-81-99*